

**SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANUVCHI ISTE'MOLCHILAR
HUQUQLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI**

Rahmatova Dilorom Dilmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi

yo'nalishi magistranti

Email: rahmatovadilorom531@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu tezisda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda iste'molchilar huquqlarining buzilishi bilan bog'liq huquqiy masalalar yoritilgan. Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy kabi ilg'or davlatlarning tajribasi asosida sun'iy intellektning huquqiy tartibga solinishi, xavf darajasi bo'yicha tasnifi, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va kompensatsiya mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida iste'molchilarning huquqlari buzilgan taqdirda fuqaroviy, ma'muriy va jinoyat-huquqiy javobgarlik choralariga to'xtalinadi.*

***Kalit so'zlari:** sun'iy intellekt, iste'molchi huquqlari, javobgarlik, shaxsiy ma'lumotlar, AI Act.*

Kirish

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bir qatorda, ushbu tizimlardan foydalanuvchilar tomonidan iste'molchilarning huquqlarini buzish holatlari ham ortib bormoqda. Mazkur holatlar fuqarolik, ma'muriy va jinoyat-javobgarlik choralarini ko'rib chiqishni talab qiladi.

Asosiy qism

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan holatlarda iste'molchi huquqlarini himoya qilish masalasi nafaqat texnologik, balki huquqiy va axloqiy nuqtai nazardan ham jiddiy e'tibor talab qilmoqda. Zamonaviy huquq tizimlari bu

borada yangi yondashuvlar, normativ asoslar va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar sun'iy intellektga oid huquqiy me'yorlarni iste'molchilar manfaatini hisobga olgan holda ishlab chiqishga intilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellektidan foydalangan iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Ilg'or davlatlar ushbu muommalarga yechim topish maqsadida qator qonunlar ishlab chiqargan.

Yevropa Ittifoqi (AI Act loyihasi)

Yevropa Komissiyasi 2021-yilda "Artificial Intelligence Act" (AI Act) deb nomlanuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini e'lon qildi. Ushbu qonun loyihasi SI tizimlarini xavf darajasiga ko'ra to'rt toifaga ajratadi: noaniq xavfli, cheklangan xavfli, yuqori xavfli va mutlaqo taqiqlangan SI tizimlari. Yuqori xavfli SI tizimlari (masalan, sog'liqni saqlash, bank, sug'urta va yollash tizimlaridagi sun'iy intellekt uchun qat'iy shaffoflik, hisobdorlik va inson nazorati talab etiladi.

Iste'molchilar, agar SI natijasida salbiy oqibatlarga duch kelsa, o'z huquqlarini sudda himoya qilish, shikoyat qilish va kompensatsiya olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Qonun loyihasi shuningdek, sun'iy intellekt asosida yuzni aniqlash, harakatlarni kuzatish kabi texnologiyalarni ommaviy joylarda qo'llashni cheklaydi¹.

2. AQSh (Federal Trade Commission – FTC faoliyati)

AQShda SI texnologiyalarining noto'g'ri qo'llanishi natijasida iste'molchilar huquqlari buzilgan holatlarda Federal Savdo Komissiyasi (FTC) faol rol o'ynaydi. Uning asosiy vazifasi fuqarolik (jinoiy bo'lmagan) monopoliyaga qarshi qonunlarni

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/13/artificial-intelligence/>.

qo'llash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni rag'batlantirishdan iborat². FTC kompaniyalarning SI orqali aldovli reklama berishi, noto'g'ri ma'lumotlar asosida qarorlar chiqarishi yoki shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yig'ishi holatlarida jarimalar belgilaydi. Masalan, Amazon va Clearview AI kompaniyalari yuzni aniqlovchi SI texnologiyalarni noto'g'ri ishlatganligi uchun FTC tomonidan tekshiruvlarga tortilgan. AQShda shuningdek, ayrim shtatlar (Kaliforniya, Illinoys) shaxsiy biometrik ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha maxsus qonunlar (masalan, BIPA – Biometric Information Privacy Act) qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasida iste'molchilarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi bir nechta muhim qonunlar amalda bo'lib, ular iste'molchilar huquqlarining qonuniy asosda himoyalaniishini ta'minlaydi. Jumladan, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun, Fuqarolik kodeksi hamda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun ana shunday asosiy huquqiy hujjatlardandir. Iste'molchilarning huquqlari buzilganda javobgarlik choralari qo'llaniladi. Iste'molchilarning huquqlari buzilganda javobgarlikga tortilayotgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik va jinoyat-huquqiy javobgarlik choralari amalga oshiriladi.

Ma'muriy javobgarlik – bu davlat tomonidan shaxs yoki yuridik tashkilotga qonunbuzarlik sodir etilganligi uchun belgilangan yengilroq jazodir. Bu jinoyat emas, ammo qonunbuzarlik uchun jazo hisoblanadi. Bunda jarima, ogohlantirish yoki faoliyatni to'xtatish kabi turdagi jazolar qo'llanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi iste'molchining huquqlarini buzish bilan bog'liq hollarda jarimalar va boshqa chora-tadbirlar belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining

² <https://share.google/6iGCe6MuDniIWbilg>.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46-moddasida shaxsning shaxsiy va oilaviy ma'lumotlarini ruxsatsiz tarqatilishi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solinadi.³

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik choralari bunda zarar ko'rgan iste'molchilar sudga murojaat qilishlari mumkin. Shaxsning huquqiy majburiyatlarini bajarmasligi yoki buzilishi natijasida boshqa shaxsga yetkazilgan zararni qoplashga fuqaroviy-huquqiy javobgarlik deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi orqali iste'molchilarga yetkazilgan zararni qoplash huquqi himoya qilinadi. Ushbu kodeksning 14-moddasi zararni qoplash masalasi bo'yichadir. Shartnoma tuzilgan yoki qonun jihatdan shaxsga zarar yetkazilsa, zararni to'la qoplanishini talab qilishi mumkin. Zarar – huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi hamda bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari tushuniladi.⁴

Jinoyat-huquqiy javobgarlik choralari orqali iste'molchilar o'z huquqlarini himoya qiladi. Iste'molchilar huquqlarini buzish faqat ma'muriy yoki fuqaroviy emas balki jinoyat-huquqiy javobgarlikka ham sabab bo'lishi mumkin. Bunda iste'molchilar jinoyat-huquqiy javobgarlik choralari orqali o'z huquqlarini himoya qilishlari mumkin. Agar iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazuvchi xatti-harakat jinoyat alomatlariga ega bo'lsa, aybdor shaxs yoki yuridik shaxs rahbari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi asosida jazoga tortilishi mumkin. 191-moddaga binoan esa sir tutilishi kerak bo'ladigan axborotlar

³ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi // Qonunchilik bazasi

⁴ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.

ma'lumot egasining rozilgisiz yoki qasddan oshkor etilsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.⁵

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat ijobiy imkoniyatlar, balki jiddiy huquqiy va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, iste'molchi huquqlarining buzilishi, noto'g'ri qarorlar chiqarilishi, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy ishlatilishi kabi holatlar global miqyosda xavotir uyg'otmoqda. Yevropa Ittifoqining "AI Act" qonuni, AQShning FTC faoliyati, Xitoyning algoritmik nazorat tizimlari kabi misollar sun'iy intellektni qonuniy asosda tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston ham bu borada tegishli normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirishi, ayniqsa iste'molchilarni sun'iy intellekt vositasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar va huquqiy xavflardan himoya qilishga qaratilgan maxsus yondashuvlar ishlab chiqishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/13/artificial-intelligence/>.
2. <https://share.google/6iGCe6MuDniIWbil>.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi // Qonunchilik bazasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi // Qonunchilik bazasi.

⁵ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.



5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari
ma’lumotlar bazasi.